

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

TO‘XTAMISHOV AZIZ QAHRAMONOVICH

**KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA TURIZM SOHASINI
INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on economical
sciences**

To‘xtamishov Aziz Qahramonovich

Klaster yondashuvi asosida turizm sohasini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish 3

Тухтамишов Азиз Кахрамонович

Совершенствование экономического механизма инновационного развития туристической сферы на основе кластерного подхода 26

Tukhtamishov Aziz Kakhramonovich

Improving the economic mechanism for innovative development of the tourism sector based on the cluster approach 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

TO‘XTAMISHOV AZIZ QAHRAMONOVICH

**KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA TURIZM SOHASINI
INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PHD/Iqt3944 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb sahifasi (www.univ-silkroad.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Muxammedov Murod Muxamadiyevich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Ibragimov Nutfullo Salimovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Axmedov Ikrom Akramovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 20-iyul soat 11-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel: (998 90) 213-89-07; Faks:(998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№14 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 3-iyul kuni tarqatildi
(2024-yil 3-iyuldagi 14-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A.Eshstayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

X.I.Turdibekov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, i.f.n., dotsent

B.Sh.Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuqori raqobatbardoshlikka ega mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish strategiyalarni ishlab chiqishning asosiy elementlaridan biri klasterlar hisoblanadi. Klaster yondashuvi alohida tarmoq va hudud rivojlanishining integratsiyasini ta'minlab, mavjud hamda potensial hamkorlarni aniqlash, ularning raqobatbardoshlik darajasini belgilash, istiqbolli klasterlarda biznes-muhitni yaxshilash va investitsion faollikni rag'batlantirishga asoslanadi. Shu sababli turizm sohasini innovatsion rivojlantirishda klasterlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda "Jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 6,0 %ni, yalpi investitsiyalaridagi ulushi 7,0 %ni, yaratilayotgan ish joylarining 10 %i hamda jahonda ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining 10 %i turizm sohasining hissasiga to'g'ri kelmoqda"¹. Bu borada, turistik klaster rivojlanishi uning ishtirokchilarining hamkorligini, davlat boshqaruv organlaridan esa hududlardagi klasterlarning manfaatlariga mos loyihalarni qo'llab-quvvatlashni talab qiladi. Shu jihatdan jahonda turizm sohasini klaster yondashuvi asosida innovatsion rivojlantirish hamda turistik mahsulotlar va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

Jahonda turizm sohasini klasterlash asosida innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga, sifatli turistik xizmatlar ko'rsatish jarayonlarida yuzaga kelayotgan qator muammolarni bartaraf etish bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlarga ustuvorlik berilmoqda. Bu borada turizm sohasida klasterlashning innovatsion omillari va tamoyillarini aniqlash, klaster yondashuvi asosida turizm sohasining innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkorlikni samarali tashkil etish, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, turistik xizmatlar sifatini oshirish, investitsiyalarni jalb qilish orqali infratuzilmani takomillashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, turizm sohasining YaIMdagi ulushini oshirish, shuningdek, turizm sohasida klasterlarni boshqarishning maqsadli dasturlarini yaratishda hududiy turizm klasterini innovatsion rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlardagi tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida turizm iqtisodiyotining innovatsion sektorini rivojlantirish, turizm industriyasining klasterli rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, hududiy turizmning innovatsion klasterini boshqarish mexanizmini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirish dolzarblik kasb etmoqda. "Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. Ushbu soha daromadliligi bo'yicha dunyoda uchinchi o'rında turadi. Yana bir muhim jihati, kam xarajat bilan bir qancha ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi"². Darhaqiqat, ushbu salohiyatdan foydalanib, mazkur vazifalarni muvaffaqiyatli hal etish maqsadida turistik xizmatlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, ularni tartibga solishda klaster yondashuvini qo'llash zarurligini isbotlash, turistik klasterlarning tuzilishi,

¹ <https://www.unwto.org>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishi. <https://religions.uz/news/detail?id=1837>

muammolari va rivojlanish istiqbollarini ko‘rib chiqishda klaster yondashuvining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilish, shuningdek, ularni tartibga solish usullarini, turistik klasterlarni rivojlantirishning tadqiqot metodikasini taklif qilish va uni sinab ko‘rish, hududda turizmni o‘rganish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashda klaster yondashuvini qo‘llashga imkon beruvchi metodikalarni asoslash, turistik klaster strategiyalarini ishlab chiqishning metodik asoslarini shakllantirish, turizm sohasining klaster yondashuvi asosidagi innovatsion rivojlanishini ta‘minlash kabi istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi “Turizm to‘g‘risida”gi O‘RQ-549-sonli Qonuni³, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli, 2021-yil 9-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonlari, 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4095-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi PQ-21-son “O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 828-sonli Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi⁴.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Turizm sohasining innovatsion rivojlanishi, turistik xizmatlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, turizm klasterlarini tashkil etish va rivojlantirishning ilmiy-metodologik jihatlarini ko‘plab

³ lex.uz/docs/-4428097.

³ lex.uz/docs/-3550279.

⁴lex.uz/docs/-4428097. lex.uz/uz/docs/-4143188, lex.uz/uz/docs/-4143188, lex.uz/ru/docs/-5283956, lex.uz/docs/-5841063, lex.uz/docs/-3550279, lex.uz/docs/-4141452, lex.uz/docs/-5868619 lex.uz - Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi.

xorijlik olimlar⁵, jumladan, K.X.Haksever, B.R.Render, R.S.Rassel, R.G.Merdik, A.P.Gorbunov, L.Ya.Burnyasheva, L.X.Gazgireeva, A.V.Durnev, A.A.Ignatev, A.V.Karpenko, I.P.Monich, V.S.Novikov, Ye.V.Pesoskaya, V.N.Rudchenko, A.Yu.Aleksandrova, A.E.Boyko, S.Yu.Grishin, A.V.Durnev, Ye.V.Egorov, O.Yu.Kosenko, Yu.S.Lebedinskaya, S.N.Moreva, V.A.Rubsov va boshqalarning asarlarida tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga hissa qo'shgan olimlardan Q.X.Abdurahmanov, N.T.To'xliyev, M.Q.Pardayev, A.A.Eshtayev, O.M.Pardayev, M.T.Aliyeva, A.N. Norchayev, B.Sh.Safarov, B.H.To'rayev, N.S.Ibragimov, I.S.Tuxliyev, M.E.Po'latov, A.T.Mirzayev, U.R.Matyakubov, I.A.Axmedov, M.M.Muxammedov, D.X.Aslanova⁶ singari olimlarning ilmiy ishlarida hududlarda

⁵ K.X.Haksever, B.P.Рендер, P.C.Рассел, P.Г.Мердик.. Управление и организация в сфере услуг: теория и практика: Service Management and Operation – 2-е международ. изд. (пер. с англ. под науч. ред. В.В.Кулибановой) / – СПб, 2002. – 751 с.; Горбунов А.П., Бурняшева Л.А., Газgireeva Л.Х., Рудь Н.Ю. Инновационный туристский кластер как модель устойчивого развития регионов / А.П. Горбунов // Известия Кабардино-Балкарского научного центра РАН. - 2016. - № 4 (72). - С. 62-66; Дурнев А.В. Целесообразность создания туристско-инновационного кластера в регионе / А.В. Дурнев // Новая наука: Современное состояние и пути развития. - 2016. - № 10-1. - С. 45-48; Игнатъев А.А. Инновации туризма на севере России / А.А. Игнатъев // Горизонты экономики. - 2015. - № 4 (23). - С. 30-36; Карпенко А.В. Управление инновационной активностью / А.В. Карпенко // Наука и производство Урала. - 2015. - № 11. - С. 156-159; Монич И.П. Управление инновационной деятельностью в сфере туризма / И.П.Монич // Вестник Забайкальского государственного университета. - 2011. - № 11. - С. 9-14; Новиков В.С. Инновации и эволюция туристской деятельности / В.С. Новиков // МИР (Модернизация. Инновации. Развитие). - 2012. - № 9. - С. 73-78; Песоцкая Е.В. Этологический подход в управлении туристскими услугами / Е.В. Песоцкая // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета. - 2016. - № 3 (99). - С. 92-97; Рудченко В.Н. Инновации в туризме и построение подхода по их оценке / В.Н. Рудченко // Ученые записки Санкт-Петербургского университета технологий управления и экономики. - 2014. - № 4 (48). - С. 60-69.; Александрова А.Ю. Особенности создания туристских кластеров в России (на примере Вологодской области) / А.Ю.Александрова, Ю.Л.Владимиров // Современные проблемы туризма и сервиса. – 2016. – Т. 10, № 1. – С. 47-58; Бойко А.Е. Исследование рисков формирования туристского кластера: методический аспект / А.Е.Бойко // Вестник Сочинского государственного университета туризма и курортного дела. – 2012. – № 1. – С. 19-23; Гришин С.Ю. Управление региональными туристскими кластерами / С.Ю.Гришин. – СПб.: СПбГЭУ, 2016. – 209 с.; Дурнев А.В. Понятие туристско-рекреационного кластера / А.В.Дурнев // Новая наука: Современное состояние и пути развития. – 2016. – № 10-1. – С. 48-51; Егоров Е.В. О создании кластеров в туристском секторе экономики РФ / Е.В.Егоров, В.В.Коваленко // Аудит и финансовый анализ. – 2015. – № 2. – С. 364-370; Косенко О.Ю. Особенности формирования туристского кластера / О.Ю.Косенко // Научный альманах. – 2016. – № 7-1. – С. 103-107; Лебединская Ю.С. Региональный туристский кластер: понятие и специфические черты / Ю.С.Лебединская // Научное обозрение. – 2015. – № 12. – С. 360-364; Морева С.Н. Туристский кластер как механизм развития сельских территорий / С.Н. Морева // Социально-экономические явления и процессы. – 2014. – № 2. – С. 86-91; Рубцов В.А. Развитие туристского сектора с применением кластерного подхода / В.А.Рубцов, Э.И.Байбаков // Экологический консалтинг. – 2015. – № 4. – С. 21-26.

⁶ Абдурахмонов К.Х. Менеджмент туризма: учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» Ташкент, 2013. – 248 с.; Tuxliev I.S., Hayitboev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. – Т.: Fan va texnologiya, 2014. - 332 b.; Pardayev M.Q., Atabayev R.Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. – Samarqand: SamISI, 2006. – 137 b.; Eshtayev A.A.Turizm va mehmondo'stlik asoslari: o'quv qo'llanma.- Samarqand; "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti, 2022. 276 bet.; Pardayev O.M.Menejment: o'quv qo'llanma.- Т.: IQTISODIYOT DUNYOSI, 2019. - 244b.; Aliyeva M.T., Norchayev A.N. Turizm menejmenti: O'quv qo'llanma -Т.: TDIU, 2007. -155b.; Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari. – Т.: Fan va texnologiya, 2016. – 184 b.; Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. – Т.: Фан, 2009. – 153 с.; Пўлатов М.Э., Мирзаев Қ.Ж, Султонов Ш.А, Шавқиев Э. Глобал иқтисодий ривожланиш (туризм иқтисодиёти). Ўқув кўлланма. Т.: Фан ва технология, 2018. – 296 б.; Mirzayev A.T. O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Toshkent; Matyakubov U. Orolbo'yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish. DSc. diss. avtoref. – Urganch, 2022. B.78; Ibragimov N.S. O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash. I.f.n. diss.– Vuxoro, 2006. – 183 b.; Мухаммедов М.М. ва бошқалар. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. //Монография. «Зарафшон» нашриёти.

turizm sohasini yanada rivojlantirish muammolari, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, hududlarning salohiyati va ularni rivojlantirish masalalariga keng e'tibor qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqoti muammolarini o'rganishda yuqorida qayd etib o'tilgan olimlarning izlanishlarida klasterli yondashuv asosida turizm sohasini innovatsion rivojlantirish masalalari kompleks tadqiqot sifatida qisman o'z aksini topgan. Biroq, ushbu tadqiqotlarda klaster yondashuvi asosida turizm sohasini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalari hamda uni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari etarli darajada ko'rib chiqilmagan. Shu tufayli ushbu muammolarning innovatsion iqtisodiyot sharoitidagi ahamiyatligi va yetarlicha o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi, asosiy vazifalarini to'g'ri aniqlashga imkon yaratadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02-"Turizm va madaniy meros sohaslarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusida olib borilgan ilmiy-tadqiqot rejasining tarkibiy qismi sifatida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi klasterli yondashuv asosida turizm sohasini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"turizm klasteri" tushunchasining mohiyatini ilmiy yondashuvlar asosida tahlil etish va uning takomillashgan ta'rifini ishlab chiqish;

turistik klasterlarni shakllantirishning asosiy tamoyillari va bosqichlarini tasniflash;

turizm sohasini klasterlashtirishning innovatsion omillari, shart-sharoitlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

klaster yondashuvi asosida turizm sohasini innovatsion rivojlantirish shart-sharoitlari va cheklovchi to'siqlarini ilmiy yondashuvlar asosida asoslash;

hududiy turizmning rivojlanish tendensiyalari va innovatsion rivojlanish omillari tahlilini amalga oshirish;

klaster yondashuvi asosidagi turizm sohasining innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini oshirish holatini tahlil qilish;

turizm sohasi rivojlanishining ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

turistik klasterlarni boshqarish maqsadli dasturlarini ishlab chiqish texnologiyasini takomillashtirish;

hududiy turizm klasterining innovatsion salohiyatini rivojlantirish yo'llarini aniqlash;

turizm sohasida klaster asosida innovatsion rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida mamlakatimizda turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurutuvchi subyektlar olingan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib klaster yondashuvi asosida turizm sohasining innovatsion rivojlanishi bilan bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

T

a

d **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

q «Samarqand - Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi» ichki turizm dasturi asosida har yili 500 mingdan ziyod o‘quvchi, talaba, pensionerlar va mehnat jamoalarining Samarqandga sayohatini tashkil etish maqsadida Samarqand viloyatining Samarqand tumanida «Biznes turizm klasteri», Urgut tumanidagi Qoratepa-Omonqo‘tonda «Tog‘ turizm klasteri», Payariq tumanidagi «Imom al-Buxoriy» majmuasida «Ziyorat turizmi klasteri», Samarqand shahrida «Gastronomik turizm klasteri» va Toyloq tumanida «Agroturizm klasteri»larini tashkil etish bo‘yicha takliflar asoslangan;

g turizm yo‘nalishiga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada mukomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo‘nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ‘ib qilishni jadallashtirish maqsadida “turoperator — mehmonxona — transport — savdo va servis” xizmatlari birgalikda ko‘rsatiladigan turistik klasterlar faoliyati modelini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar dalillangan;

a mamlakatning turizm salohiyatini yanada oshirish yo‘nalishida Samarqand viloyatiga tashrif buyuradigan 1,850 mln. xorijiy turistlarga turizm klasteri ishtirokchilari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida turizm industriyasi sohasida “Servis sifati va mutaxassislarning malaka va madaniyatini oshirish” bo‘yicha o‘qitish to‘rtinchi iqtisodiy tashkilot bo‘yicha takliflar asoslangan, usullar O‘zbekiston Respublikasida turistik xizmatlar bozorining barqaror rivojlanish dinamikasi asosida yalpi ichki mahsulotda turizmning ulushini oshirishning 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari asosida ishlab chiqilgan o‘rta muddatli parametrlardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turizm va unga yondosh infratuzilmani rivojlantirishda Buxoro shahrida turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish maqsadida turizm yo‘nalishidagi tadbirkorlik sub’ektida madaniy, MICE turizm, gastronomik turizm, mehmonxona, SPA, fitnes, umumiy ovqatlanish, turistik mahsulotlarni sotish kabi xizmatlarni kengaytirish orqali turizmga ixtisoslashgan klaster faoliyatini tashkil etish bo‘yicha asoslangan takliflar ishlab chiqilgan;

xorijiy sayyohlarni jalb etish yo‘nalishida Namangan viloyatida 154 ming nafar xorijiy turistlar tashrifini tashkil etish asosida mehmonxona, madaniyat, tabiat, etno va gastronomik markazlarni birlashtirgan turizm klasterini tashkil qilish bo‘yicha dalillangan takliflar ishlab chiqilgan;

mamlakatning turizm salohiyatini yanada oshirish maqsadida turizm sohasida bandlik statistikasining yuritilishini muvofiqlashtirish xalqaro tashkilotlarning metodologiyasi asosida iqtisodiy faoliyat turlarining amaldagi klassifikatorini

takomillashtirish va turizm ko'rsatkichini kiritish bo'yicha asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

Samarqand viloyatida hududiy turizm sohasi innovatsion rivojlanishining SWOT tahlili asosida turizmni innovatsion rivojlantirish vektorini aniqlovchi eng muhim omillar, uning kuchli va kuchsiz tomonlari hamda mavjud imkoniyatlar va tahdidlar yo'nalishlari bo'yicha tasniflangan va istiqbolli ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuvlar va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va tavsiyalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, klaster yondashuvi asosida turizm sohasini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar hamda takliflar viloyatiga keladigan xorijiy va milliy turistlar miqdorining oshishida, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini va turizmni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati hududda turizm sohasida madaniy meros obyektlarini saqlash orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga erishish, sohaning jozibadorligini oshirish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi va vazirlik tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi, shuningdek, 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mamlakatimizda klaster yondashuvi asosida turizm sohasini innovatsion rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Samarqand - Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi” ichki turizm dasturi asosida har yili 500 mingdan ziyod o'quvchi, talaba, pensionerlar va mehnat jamoalarining Samarqandga sayohatini tashkil etish maqsadida Samarqand viloyatining Samarqand tumanida “Biznes turizm klasteri”, Urgut tumanidagi Qoratepa-Omonqo'tonda “Tog' turizm klasteri”, Payariq tumanidagi “Imom al Buxoriy” majmuasida “Ziyorat turizmi klasteri”, Samarqand shahrida “Gastronomik turizm klasteri” va Toyloq tumanida “Agroturizm klaster”larini tashkil etish bo'yicha asoslangan takliflar 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-135-sonli qaroridagi Samarqand viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasiga

kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 6-maydagi 03-11-17-302-son dalolatnomasi). Natijada viloyatda mahalliy turistlar oqimi hajmi ikki baravarga oshgan;

turizm yo‘nalishiga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo‘nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ‘ib qilishni jadallashtirish maqsadida “turoperator — mehmonxona — transport — savdo va servis” xizmatlari birgalikda ko‘rsatiladigan turistik klasterlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha asoslangan modeli 2023-yil 27-iyuldagi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-238-sonli qaroridagi “Yo‘l xaritasi” rejasiga kiritilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 6-maydagi 03-11-17-302-son dalolatnomasi). Natijada, mamlakatimizga 1 mln. nafar xorijiy turistlar tashrifini tashkil etish imkoniyati vujudga keldi;

mamlakatning turizm salohiyatini yanada oshirish yo‘nalishida Samarqand viloyatiga tashrif buyuradigan 1,850 mln. xorijiy turistlarga turizm klasteri ishtirokchilari tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universitetida turizm industriyasi sohasida “Servis sifati va mutaxassislarning malaka va madaniyatini oshirish” bo‘yicha o‘qitish tizimini joriy qilish bo‘yicha asoslangan takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-9-son Farmonidagi “Yo‘l xaritasi”ga kiritilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 6-maydagi 03-11-17-302-son dalolatnomasi). Takliflarning amalga oshirilishi natijasida Samarqand viloyatida turizm yo‘nalishidagi malakaviy kadrlar soni ikki barobar oshirilgan;

O‘zbekiston Respublikasida turistik xizmatlar bozorining barqaror rivojlanish dinamikasi asosida yalpi ichki mahsulotda turizmning ulushini oshirishning 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlaridan hududlarda turizm sohasini rivojlantirish dasturlari va “Yo‘l xarita”larini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining 2024-yil 6-maydagi 03-11-17-302-son dalolatnomasi). Ushbu prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish 2027-yilga kelib, respublikada turistik firma va tashkilotlar sonini 41,5 % ga va kiruvchi turizmni 98,5 % ga oshishiga imkon berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan, 4 ta respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 2 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 139 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, ob'ekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilishning sinovdan o'tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiya ishining **“Klaster yondashuvi asosida turizm sohasini innovatsion rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida turizm sohasi innovatsion rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflovchi ilmiy yondashuvlarni nazariy jihatdan tahlil etish asosida “turizm klasteri” tushunchasining iqtisodiy mazmuniga oid mualliflik ta'rifi ishlab chiqilib, turistik klasterlarni shakllantirishning asosiy tamoyillari va bosqichlari tasniflangan. Shuningdek, turizm sohasini klasterlashtirishning innovatsion omillari, shart-sharoitlari va xususiyatlari aniqlangan hamda klaster yondashuvi asosida turizm sohasini innovatsion rivojlanish shart-sharoitlari va uni cheklovchi to'siqlar ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilgan.

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida respublikamizda hududiy klasterlarni rivojlantirish milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish va xo'jalik subyektlari faoliyatining intensivligini ta'minlashning muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyot va menejment fanlarida, xususan, turizmda “klaster” atamasi ko'p qo'llaniladigan tushuncha hisoblanib, uning mohiyati so'nggi o'n yilliklarda juda tez va oldindan aytib bo'lmaydigan tarzda o'zgardi. Klasterlar, xususan, turistik klasterlar mamlakatimiz iqtisodiyotini, shuningdek, milliy va xalqaro bozorlarda turizm xizmatlarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beruvchi innovatsion rivojlanishning o'ziga xos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmga aylandi.

Muallif fikricha, “turizm klasteri – bu alohida turistik tashkilotlarning mavjud turistik resurslardan samarali foydalanish, asosiy faoliyat uchun xarajatlarni optimallashtirish, sinergetik samaraga erishish hamda o'zaro hamkorlik doirasidagi tashkiliy tuzilmalarning raqobatdosh ustunliklariga erishish imkonini beruvchi turizm tarmoqlarining ham geografik, ham ishlab chiqarishning o'ziga xosligi va yaqinligini nazarda tutadigan iqtisodiy faoliyatini tashkil etishning innovatsion shaklidir”.

Turizm klasteri sinergetik samaradorlikka asoslangan dinamik iqtisodiy tizim hisoblanadi. Turistik klaster doirasida erishilgan munosabatlarning sinerjiyasi uning

barcha elementlaridan jami erishilgan natijalarni ularning qisman yig'indisidan ko'ra, ko'proq samaraga birlashtirish orqali amalga oshirilgan faoliyatidan turli xil ijtimoiy-iqtisodiy samaralarni olish imkonini beradi. Turistik klasterning shakllanishi texnik-texnologik, tashkiliy, marketing va boshqa sohalarga innovatsiyalarni joriy etish orqali, uning unumdorligi va samaradorligini oshirishga olib keladi hamda tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy shakllari va turlari kengayishini rag'batlantiradi. Xorijiy davlatlar va respublikamizdagi mavjud tajribalarga asoslangan holda, hududda klaster tashabbusini amalga oshirish yo'llari sifatida uning tarkibi, shakllanishi, rivojlanishi va faoliyatini aniqlashni bosqichli jarayon ko'rinishida tasavvur etish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Turizm klasteri shakllanishining bosqichlari va tashkiliy mexanizmlari⁷


⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi 1-rasmga ko'ra, hududning turistik salohiyatini tahlil qilish, klasterning har bir zonasi bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish, klaster ishtirokchilari o'rtasida korporativ aloqalarni o'rnatish hamda ularning qo'shma loyihalarini amalga oshirish bosqichlarini shakllantirish asosida hududda klaster tashabbusini joriy qilish usuli takomillashtirildi.

Turistik hududni klasterlashda nafaqat innovatsion salohiyati eng yuqori bo'lgan tarmoqlar, balki xo'jalik subyektlari o'rtasidagi mavjud aloqalar hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini tashkil etishning muayyan shakllariga ham e'tibor qaratish zarur. Shunga ko'ra, turistik klasterlarni shakllantirishning klaster ishtirokchilari manfaatlari mushtarakligini ta'minlash, ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarni konsentratsiyalash hamda klaster ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari samaradorligini oshirish tamoyillari ishlab chiqildi. Jahonda va turizm bozorida globallashtirish jarayonlarining kuchayib borishi bo'yicha sodir bo'layotgan murakkab geosiyosiy vaziyatni hisobga olgan holda, muallif tomonidan, mazkur muammoni ko'rib chiqishni milliy va xalqaro darajada klasterlashning bir qator tashqi omillari ajratib ko'rsatildi. Ular geosiyosiy, tashqi iqtisodiy, infratuzilma, tarmoq va ijtimoiy-madaniy omillar bo'yicha tasniflandi.

Turizm sohasida klasterlarni yaratish bir qator mavjud muammolarni har tomonlama hal qilish imkonini beradi, ya'ni: turizm klasteri doirasida tarmoqlararo korxonalar (tashkilotlar) va kontragentlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar turizm sohasidagi tor ixtisoslashuvdan tashkiliy, boshqaruv va servis-ishlab chiqarish faoliyatida integratsiyani chuqurlashtirish imkonini beradi; turizm klasteri tarkibidagi turli xil firmalar va tashkilotlarning birlashmasi (ozuq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, esdalik sovg'alar, ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari bo'yicha yetakchi muassasalar, venchur korxonalari va h.k.) innovatsion faollikni oshirish va innovatsiyalarni tarqatish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Shu bois, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar klasterida ishtirok etish uning ichki va tashqi raqobatbardoshligini oshiradi va klaster ishtirokchilari e'tiborini turli xil innovatsion loyihalar va tashabbuslarga qaratadi; turizm klasterida ishtirok etish innovatsion turizm mahsulotlari va xizmatlarini yaratish, ularni realizatsiya qilishni tezlashtiradi hamda turistlarga qo'shimcha va ikkilamchi xizmatlar ko'rsatuvchi boshqa korxonalarining ish sifatini yaxshilash va qo'shimcha qiymat yaratishiga ko'maklashadi; turizm sohasidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarning (birinchi navbatda, turoperatorlar va turagentlar) o'zaro munosabatlari hamkorlik bo'yicha maqsadlarning paydo bo'lishiga olib keladi, bu esa, o'z navbatida, turistlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan talab va taklif nisbatiga ta'sir qiladi; turizm klasterining barcha ishtirokchilari manfaatlarini hisobga olish qulay investitsiya va ishbilarmonlik muhitini saqlashga xizmat qiladi, bu esa turistik mahsulotlar va xizmatlar turlarini kengaytirishga olib keladi va sohada innovatsion-investitsiyalarning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini o'sishini ta'minlaydi. Turizm sohasida klasterlash muammolarni hal qilish institutsional, innovatsion, ijtimoiy-iste'mol, ijtimoiy-madaniy, landshaft va geografik muhit omillariga bevosita bog'liqdir (2-rasm).



2-rasm. Turizm klasteriga ta'sir etuvchi tashqi muhit modeli⁸

Ushbu 2-rasmga ko'ra, turistik klaster ishtirokchilarining samarali integratsiyasini hudud salohiyatining geografik chegarasini identifikatsiyalash hamda klasteri rivojlantirish shart-sharoitlarini ifodalovchi omillarni aniqlashga tashqi va ichki muhit ta'sirini baholash yondashuvi asosida takomillashtirish taklifi asoslandi.

Turizmda "muhit" yondashuvini joriy etish zarurati (bu kontekstda resurs-geografik, ijtimoiy-madaniy va tashkiliy-tarkibiy qismlarning uchlik birikmasi sifatida tushuniladi) turistlar tomonidan talab va turistik xizmatlarni taqdim qiluvchi tashkilotlar tomonidan taklif shakllanishining o'ziga xosligi va tabiiy, tarixiy-madaniy hamda ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslarning xususiyatlariga asoslanadi. Bunda doimiy ravishda turli davlat institutlarining tartibga soluvchi va tashkiliy-boshqaruv o'rni, huquqiy tizim, respublika va uning hududlari darajasida turizmni

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

boshqarish organlari tizimi, davlatning tashqi iqtisodiy va savdo siyosatiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Turizm sohasida klasterlarni rivojlantirish quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi: birinchidan, turistik klasterlarni yaratishning eng muhim tamoyillarini, ularning xarakterli xususiyatlarini aniqlash, klasterlarning, xususan, turistik klasterlarning tasnifini yaratish kerak. Ikkinchidan, turistik klasterlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish, turizm sohasidagi tashkilotlar va tadbirkorlik, ta'lim va ilmiy faoliyatning boshqa subyektlari o'rtasida klasterlar doirasidagi barcha munosabatlarni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Uchinchidan, me'yoriy-huquqiy bazani, davlat va hududiy klaster siyosatining yo'nalishlarini takomillashtirish, innovatorlar, tadbirkorlar, davlat hokimiyati vakillari, ta'lim va ilmiy tashkilotlar xodimlari manfaatlarini muvofiqlashtirish zarur. To'rtinchidan, respublikamiz va uning hududlarida turizm industriyasini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida klasterlashning eng muhim yo'nalishlarini har tomonlama tahlil qilish talab etiladi. Beshinchidan, tadbirkorlik tuzilmalarining integratsiyalashuvini chuqurlashtirish, alohida hududlarda klasterlar doirasida faoliyat yurituvchi turizm tashkilotlarining innovatsion faolligini oshirishga qaratilgan samarali chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish zarur.

Muallif fikricha, respublikamiz va xorijda mavjud turizm klasterlari bo'yicha nazariyalarni tahlil qilish asosida turizm klasteri tashabbuslarining innovatsion salohiyatidan samarali foydalanish bo'yicha xulosalar quyidagilardan iborat bo'lishi kerak: turistik klasterlarni rejalashtirish va yaratish tashabbuslari mahalliy tuzilmalar va viloyatlar hamda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari vakillari tomonidan ilgari surilganda "yuqoridan pastga" tartibga solish modelidan "pastdan yuqoriga" tartibga solish modeliga o'tish orqali davlat tomonidan tartibga solish tizimini qayta yo'naltirish; har qanday turistik klaster doirasida asosiy elementlardan biri ta'lim va ilmiy sektor bo'ladigan o'ziga xos aloqalar tizimiga ega bo'lgan tegishli hududiy-funksional tuzilmani shakllantirishni amalga oshirish zarur; turizm sohasidagi korxonalarining innovatsion faolligini oshirish hamda buning uchun "biznes-davlat-ta'lim-fan" shaklidagi sheriklik asosida protoklaster tuzilmalarini tashkil etish; turizmni klasterli rivojlantirishning innovatsion xususiyatga egaligi marketing (bozor) jihatlarini ham hisobga olish, xususan, birinchi navbatda hududiy va milliy turizm bozorlarining real ehtiyojlariga e'tibor qaratish; ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish maqsadlarini belgilash; klaster tuzilmalarining innovatsion faolligini oshirish uchun hududiy va tarmoq paradigmasidan tashkiliy-boshqaruv va marketing paradigmasiga o'tish orqali, birinchi navbatda, hududning geografik xususiyatlari va mavjud turistik resurslarni hisobga olgan holda klasterlarni loyihalash va rejalashtirish metodologiyasini qayta ko'rib chiqish zarur.

Dissertatsiya ishining **"Hududlarda turizm sohasini klasterlash asosida innovatsion faoliyatning rivojlanish holati va tahlili"** deb nomlangan ikkinchi bobida respublikada turizm sohasining rivojlanish holati va tendensiyalari hamda klaster yondashuvi asosida turizm sohasining innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini oshirish holati tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda turizm sohasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari asosida ekonometrik tahlil amalga oshirilgan.

Mamlakatimizda turizm sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra, kiruvchi tashrif buyuruvchilar soni 2022-yilda 16,5 mln. kishidan iborat bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 101,8 %ni tashkil etgan. Keyingi yillarda turizm strategik ahamiyatga ega soha bo'lganligi sababli 2022-yilda oilaviy mehmon uylari soni ham 3100 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 3,5 martaga oshgan. Shu bilan birga respublikamiz YaIMda turizmning ulushi 2018-2022 – yillarda 0,3 foizga kamaygan, buning asosiy sababi 2020-yilda butun dunyoda bo'lib o'tgan pandemiya tufayli turizm sohasidagi inqirozli holat hisoblanadi. Respublikamiz turizm sohasida band bo'lganlar soni tahlil qilinayotgan davrlar oralig'ida 37,0 %ga oshgan holda, ichki turizm 104,1 %ga o'sgan (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi⁹

№	Ko'rsatkichlar	Yillar					2018-2022-y.y.da o'zgarish, %
		2018	2019	2020	2021	2022	
1.	Tashrif buyuruvchilar soni jami, mln. kishi	16,2	17,7	4,6	6,2	16,5	101,8
2.	Kiruvchi turizm, ming kishi	5346,2	6748,5	1504,1	1881,3	5232,8	97,9
3.	Joylashtirish vositalari, birlik	916	1051	1156	1085	5010	5,5 marta
4.	Oilaviy mehmon uylari, birlik	-	106	886	897	3100	3,5 marta
5.	YaIMda turizmning ulushi, %	2,5	2,6	1,3	1,8	2,2	0,3
6.	Turizm sohasida band bo'lganlar, ming kishi	201,0	260,1	201,3	215,6	275,3	137,0
7.	Ichki turizm, ming kishi	10854,5	10952,8	3069,2	4162,7	11300,7	104,1

O'zbekiston Respublikasiga 2022-yilda tashrif buyurgan erkak turistlar soni 2 585,8 ming kishidan iborat bo'lib, bu tashrif buyurgan barcha xorijiy fuqarolar umumiy sonining 49,4 % ini tashkil etgan. 2021-yilga nisbatan ularning soni 2,7 barobarga oshgan. 2022-yil davomida kelgan erkaklarning eng katta qismi to'rtinchi chorakka to'g'ri kelgan – 837,5 ming kishi, bu ularning umumiy sonining 32,4 %ini tashkil etgan. 2022-yilda mamlakatimizga tashrif buyurgan ayollarning umumiy soni 2647,0 ming kishidan iborat bo'lgan va kelgan barcha turistlar umumiy sonining 50,6 %ini tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2021-yilga nisbatan ularning soni 2,9 martaga oshgan. 2022-yil davomida kelgan ayollarning eng katta qismi uchinchi chorakka to'g'ri kelgan – 884,8 ming kishi, bu ularning umumiy sonining 33,4 %ini tashkil etgan.

Samarqand viloyatining o'ziga xos imkoniyatlari va xususiyatlardan kelib chiqib, bir nechta klasterlarni tashkil etish bo'yicha izlanishlar olib borildi. "Samarqand - Yangi O'zbekistonning turizm darvozasi" ichki turizm dasturi asosida har yili 500 mingdan ziyod o'quvchi, talaba, pensionerlar va mehnat jamoalarining Samarqandga sayohatini tashkil etish maqsadida Samarqand viloyatining Samarqand tumanida "Biznes turizm klasteri", Urgut tumanidagi Qoratepa-Omonqo'tonda "Tog' turizm klasteri", Payariq tumanidagi "Imom al Buxoriy" majmuasida "Ziyorat turizmi klasteri", Samarqand shahrida "Gastronomik turizm klasteri" va Toyloq tumanida "Agroturizm klasteri"larini tashkil etish


⁹ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

asoslabberildi. Buning natijasida viloyatda mahalliy turistlar oqimi hajmi ikki baravarga oshirish imkoniyati mavjud.

Mahalliy turizm tashkilotlarining innovatsiyalarni idrok etishi va joriy etish masalalari sust olib borilib, mazkur yo‘nalishdagi ishlarni “jonlantirish”, mavjud innovatsion salohiyatidan maksimal darajada foydalanish, tashkilotlarning innovatsion izolyatsiyasini bartaraf etish lozim. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion turizmni rivojlantirishning umumiy va maxsus determinantlarini hisobga oladigan innovatsion faoliyat strategiyalari majmuasini shakllantirish lozim. Umumiy determinantlar jamiyat va innovatsiyalarni idrok etish va tarqatishdan manfaatdor aniq tomonlarning ehtiyojlarini hisobga olishni o‘z ichiga oladi. Aniq determinantlar turistik xizmatlar iste‘molchilari tomonidan innovatsiyalarga bo‘lgan bunday ehtiyoj va talablarni amalga oshirishni ta‘minlash uchun mo‘ljallangan.

Turizm yo‘nalishiga qo‘shimcha investitsiyalarni jalb qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunda xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo‘nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ‘ib qilishni jadallashtirish mumkin bo‘ladi. Shu maqsadida “turoperator - mehmonxona - transport - savdo va servis” xizmatlari birgalikda ko‘rsatiladigan turistik klasterlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha asoslangan modeli ishlab chiqildi. Buning natijasida, mamlakatimizga tashrif buyuradigan 1,0 mln. nafar xorijiy turistlarga yuqori sifatli xizmatlar tashkil etish imkoniyati vujudga keldi.

Bunday vaziyatda tashqi muhit va uning manfaatdor tashkilotlarining kirishda innovatsion ehtiyojlari, chiqishda innovatsion turizm mahsulotlari va xizmatlarining o‘ziga xos turlari jarayonli yondashuvning klassik texnologiyasi asosida iste‘molchiga yetkaziladi (3-rasm).



3-rasm. Klasterning innovatsion faolligini oshirishning jarayonli modeli¹⁰

¹⁰ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Bu mahsulotlar iste'molchi, jamiyat va davlat tomonidan baholanadi. Turistik klasterning asosini ko'pincha kadrlar, texnik-texnologik, infratuzilma, kommunikatsiya, iqtisodiy va axborot infratuzilmasi bilan bog'liq salohiyat ko'rsatkichlari (omillari) tashkil etadi. Shu asosda turizm klasteri ishtirokchilari faoliyatini bozor ehtiyojlariga muvofiqlashtirish, taklif etilayotgan xizmatlar sifati va xavfsizligini ta'minlash, turizm sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish asosida turizm klasteri innovatsion faolligini jarayonli yo'naltirilgan modeli takomillashtirildi.

Xizmat ko'rsatish tizimini tashkil etuvchi kompleks har qanday turistik klaster uchun majburiydir, chunki u butun klaster tizimini rejalashtirish, tartibga solish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishni ta'minlaydi. Bunday kompleksning samaradorligi o'z-o'zini tartibga solish modeli bilan bog'liq amaldagi me'yoriy-huquqiy baza, biznes tuzilmalari va turizmni boshqarish bilan bog'liq davlat organlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida respublika yalpi ichki mahsulotida turizmning ulushini oshirishning korrelyatsion-regression tahlil usullari yordamida omillar o'rtasidagi bog'liqlik kuchini aniqlash hamda baholash asosida turizm sohasining rivojlanish mexanizmlari aniqlandi. Bu holatda model tuzilishining eng asosiy bosqichi natijaviy, istiqbollashtirilgan ko'rsatkichning tanlab olingan omillarga bog'liqligini ifodalovchi ekonometrik ifodani tanlash hisoblanadi.

Yalpi ichki mahsulotda turizmning ulushiga ta'sir etuvchi omillar tahlili orqali ishlab chiqilgan modelda F- Fisher mezonining haqiqiy qiymati $F_{\text{haqiqiy}}=11$. Shuningdek, erkinlik darajalari soni surat bo'yicha $\gamma_1=7$ va maxraj bo'yicha $\gamma_2=10$ ga teng bo'lganda, Fisher mezonining jadval qiymati (ahamiyatlilik darajasi $p=0,95$ da) uchun $F_{\text{jadval}}=3,21$. Demak, hosil qilingan ko'p omilli regressiya tenglama ahamiyatli hisoblanadi.

Demak, regressiya tenglamasiga kiritilgan omillar yuqori ahamiyatli, ahamiyatli, nisbatan ahamiyatli va ahamiyatsiz hisoblanadi. Tahlil natijalaridan kelib chiqib, modelimizga kiritilgan yuqori ahamiyatli va ahamiyatli omillarni alohida ajratib ko'rsatdik.

